

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

## NOMODDIY MADANIY MEROS FONDIDA FARG‘ONA VODIYSI AHOLISINING MILLIY LIBOSLARI

Z.Xaitova

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi aholisining milliy liboslari shuningdek zamonaviy kostyuming kelib chiqish tarixi o‘ziga xos uslubi rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Zamon talablari asosida shakllanayotgan yangi eskizlar ustida olib borilayotgan yangi model kolleksiyalarini yaratish uslublari tadqiq etildi.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona, milliy, libos, madaniyat, urf-odat, hunarmandchilik, uslub, atlas, adres, beqasam, do‘ppi, eskiz.

### НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОДЕЖДЫ НАРОДОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В ФОНДЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

**Абстрактный.** В данной статье изучаются национальные костюмы населения Ферганской долины, а также история возникновения современного костюма, этапы развития уникального стиля. Изучены методы создания новых модельных коллекций на основе новых эскизов, сформированных с учетом требований времени.

**Ключевые слова:** Фергана, миллий, одежда, культура, традиция, мастерство, стиль, атлас, адрес, бекасам, доппи, эскиз.

### NATIONAL DRESSES OF THE PEOPLE OF THE FERGANA VALLEY IN THE INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE FUND

**Abstract.** In this article, the national costumes of the Fergana Valley population, as well as the history of the origin of the modern costume, the stages of development of the unique style, are studied. Methods of creating new model collections based on new sketches formed based on the demands of the times were studied.

**Key words:** Fergana, milliy, clothing, culture, tradition, craftsmanship, style, atlas, address, bekasam, doppi, sketch.

## KIRISH

Millatning muhim tashqi ramziy timsoli sifatida shakllanib kelayotgan milliy liboslar O‘zbek xalqining ajoyib madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimiz hududlari o‘ziga xos milliy liboslar madaniyatiga ega bo‘lib, bu milliy liboslarning badiiy dizayni boy manbaalarni mujassam etadi. Ushbu maqola Toshkent va Farg‘ona hududida qadimdan rivojlanib kelayotgan milliy liboslar elementlari tizimlarini loyihalash uslublari va uning o‘ziga xos tomonlarini ochib berishga qaratilgan. O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kiyimlar haqida fikr yuritar ekanmiz har bir mintaqqa uchun o‘ziga xos farq va xususiyatlar mavjud. Farg‘ona vodiysi qadimdan Buyuk ipak yo‘lidagi ilm-fan, hunarmandchilik, madaniyat taraqqiy etgan makonlardan biri bo‘lgan.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgohlari va qoyatoshlarig solingan suratlar vodiyda odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Erkak-ayol va katta-kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba’zan qaychisiz va ulgusiz yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab yelka tomonga ko‘ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to‘rtburchak xishtak tikib ko‘ylak qilishgan.[3]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ayollar kuylagini tahlil qiladigan bo‘lsak ular uzun, etagi to‘pig‘igacha tushgan. Etagining eng quyi qismida ikki yon tomonidan 10-15 sm qirqib qo‘yilgan. Bellarini esa, kamar-belbog‘ bilan bog‘lab, zeb bergenlar. Kamarlarning usti ipak, astari qattiqroq paxta matodan tikilgan. Ular yumshoq, to‘qasiz kamarlar turiga kirgan bo‘lishi kerak [1]. Ustki xalat bizning taxlilimizcha, paxta matosidan tikilgan. Kiyim ipak matodan yasalgan gullar bilan bezatilgan. Ayollar kuylagi yuqorida aytganimizdek, etagi to‘pig‘igacha tushgan. Bu kiyim xususan qamishtobutidagi ayol jasadida yaqqol ko‘rinadi. Ayol jasadining uzunligi 170 sm. bo‘lgani holda kuylagining uzunligi 125 sm. gacha boradi. Kuylagining yenglari ham uzun bo‘lib, barmoqlari uchigacha yopib turgan. Ust-bosh mavsumga qarab bir necha qavat kiyilganga o‘xshaydi. Bu boshqa bir qamish tobutni o‘rganish davomida oydinlashdi: bu marhum

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

ustida uch qator kiyimbor edi. Eng ustki qavatda xalatni eslatuvchi kiyim, ostida esa yana ikki qavat ipakdan tikilgan kiyim bor edi.



**1-rasm.** Farg'ona milliy liboslari uchun eskiz na'munasi.

O'g'il bolalar kiyimi o'rganadigan bo'lsak ular kalta, belidan sal pastga tushib turgan. Ko'yak etagidan, ya'ni beli atrofida ikki yon tomonidan 10-15 sm qirqib qo'yanlar. Yoqalari to'g'ri va belida maxsus tasma-belbog'i bor. Ko'krak qismini berkitish uchun ipdan alohidabog'ichdan foydalanilgan, yenglari uzun. Tashqi choklar ensiz lenta bilan tikib mahkamlangan. Yelkasi, old tomoni va yenglari atrofida ko'plab mayda munchoqchalar bor, demak kiyimning ushbu qismlariga munchoqlar tikib hasham berilgan. Ko'yakni bizningcha, sharovar (shalvar) tipidagi kiyim bilan



kiyganlar [1]. (2-rasm)

## 2-rasm. Bolalar kiyimi

Qiz bolalar kiyimini taxlil qilsak ayollar ko‘ylagidan unchalik farq qilmaydi. Ko‘ylakning ko‘krak qismi, yengining uchi va etagi maxsus gullar bilan bezatilgan. O‘ng qo‘l tomonidan esa, o‘yma cho‘ntak (kissa) tikilgan. Bulardan tashqari, yengi va ko‘krak qismiga mayda marjonli naqshlar tikilgan. Tahlil qiladigan bo‘lsak Munchoqtepadagi kiyimlar ham O‘rta Osiyodagi o‘sha ilk o‘rta asrlar an’anasi asosida tikilgan. Yengi, etagi, yelka qismlari choklari maxsus mato ipak bilan chok bostirilgan. Kiyimlarning modasi Buyuk Ipak yo‘lidagi xalqlarning liboslaridan ko‘p farq etmaydi [3]. O‘yma cho‘ntak munchoqlar va maxsus qimmat baho ipakli bezaklar, alohida shaklli tugmalar, bant va amuletlar-bu Munchoqtepa kiyimlariga xos belgilardir [4]. (3-rasm)



## 3-rasm. Qiz bolalar kiyimi

Bosh kiyimi. Ba’zi bir kattalar va bolalar jasadlarining boshqismida peshonasida, ehtimol unga bog‘langan, ipak lenta qoldiqlari qaydetildi. Uning uzunligi 40 sm. chamasi, eni 4-6 sm. Shunga o‘xshash ipak lenta ham bor. Kenko‘l mozoridagi qabrlarda ham aniqlangan. Shunday boshkiyimi qoldig‘i milodiy I ming yillikning birinchi yarmiga oid Farg‘ona mozorlarida ham topilgan [5]. Bunga o‘xshashlari O‘rta Osiyoning boshqa xududlarida ham etnograflar ham arxeologlar tomonidan aniqlangan.

Ayrim qamish tobatlarda masalan marhumlarning beli va oyog‘ining to‘pig‘i atrofida charm qoldiqlari aniqlandi. Albatta bular charm kamarva poyafzal qoldiqlari

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

bo'lsa kerak. Oyoq kiyimi, bizningcha, poshnasiz hozirgi maxsining (Farg'ona, Xorazm) bir ko'rinishidir [6]. Bu fikrni yog'och qolip ham tasdiqlaydi. Bu qolip yaxlit bir yog'ochdan yo'nib yasalgan. Shakli va belgilariga ko'ra, hozirgi maxsi qoliplaridan ko'p farq qilmaydi.

Uzunligi 27,5 sm, eni 8 sm. va hozirgi 42-43 o'lchamli davlat standartiga to'g'ri keladi. Yog'och qolip bilan birga yog'och dastali temir pichoq ham topildi. Pichoqning tig'i yaxshi saqlanmagan, undan charm kesishda foydalanilgan bo'lishi kerak. Yumshoq, maxsidan tashqari yana boshqa tipdag'i poyafzallar ham bo'lган. Charm qoldiqlari va yaxshilab eshilgan chilvir bo'lagi shundan dalolat beradi. Chilvirli oyoq kiyimlari, ehtimol, mavsumiy bo'lган bo'lishi kerak. Maxsi oyoq kiyimi sifatida ilk o'rta asrning devoriy suratlarida keng tasvirlangan va ular V-VIII asrlarda ancha ommaviy poyafzal bo'lганini ko'rsatadi. Keyingi yillarda maxsining o'zi va u bilan bog'liq arxeologik ma'lumotlar ko'plab topilmoqda. Bularga Samarkand yaqinidagi Kofirqaladan (A.Berdimuradov qazishmasi) topilgan maxsi yoki Mug' tog'idagi topilmalar ichida [7]. Toshkent vohasida, Farg'ona vodiysidagi Qorabuluoq mozorida ham mahsilar va ularga o'xshash oyoq kiyimlari topildi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o'rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tadbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an'analari, yashash tarzi haqida ma'lumot ham beradi.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Bentovich I.B. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo kiyimlari (6-8-asrlar devor rasmlari bo'yicha) // Sharq mamlakatlari va xalqlari. jild. 22. -M., 2010. -S. 196-212
2. Shalvar sidirga satin, shoyi matodan tik pochasi bugik keng lozim. Karang. S.Davlatova.Ozbek kiimlari aiamalari isogli lugati.T.2017.-B.35
3. Maitdinova G. Ilk o'rta asr Toxariston libosi. Tarix va aloqalar. - Dushanbe: Donish, 2012. -268 b.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

4. Matbaboev B.X., Maitdinova G.M. Munchaktepa gazlamalari va kiyim-kechaklari // Markaziy Osiyo arxeologiyasi va badiiy madaniyati. TD. 2-qism. – Toshkent, 2015. -P. 40-41.
5. D.Rahmatullayeva, ILXodjayeva, F.Ataxanova Libos Tarixi “Sano-standart” nashriyoti Toshkent – 2015.
6. Buligina T.N. Milodiy 1-ming yillikning birinchi yarmidagi qadimgi farg‘onaliklarning bezaklari tarixiy manba sifatida: Muallif ma’lumotlari. samimiyy. ist. Sci. –M., 2017. -24 b.
7. Abdullaev T.A, Xasanova S.A. O‘zbek kiyimlari (XIX - XX asr boshlari). – Toshkent: Fan, 2018. –116 b.